

??????Amir Said Olimxon ibn Abdulahad



## Amir Said Olimxon ibn Abdulahad

(1881, Karmana – 1944. 28 aprel, Kobul)

(1910-1920)

**Mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri.** Peterburgdagi Nikolayev (pajlar) korpusida ta'lif olgan (1893-96). 1898 yil Qarshi, valiahd sifatida Karmana bekliklariga hokim bo'lgan. Otasi vafotidan so'ng 1910 yil 24-dekabrda Buxoro taxtiga o'tirgan. Uning davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Taraqqiyparvar kuchlar shuningdek, Yosh buxoroliklar qattiq ta'qib qilindi. Birinchi Juhon urushi davrida Rossiya imperatori Nikolay II uni general – leytenant harbiy unvoni bilan taqdirlagan va o'zining general – ad'yutanti qilib tayinlagan (1915 yil dekabr). Chunki u Rossiyaga katta miqdorda pul bilan yordam bergen edi. Buxoroda 1917 yil aprel namoyishi, xususan, Kolesov voqeasi (1918 yil mart) dan keyin u amirlik hududida 3 ming kishini jadidlikda ayblab, nohaq qatl ettirgan.

1920 yil avgustda Buxoro bosqini natijasida amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. Sentabr oyining o'rtalarida Olimxon Sharqiy Buxoroga borib, Buxoro xalqining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan mustaqillik kurashiga rahbarlik qilishga urindi. Olimxon Hisor viloyatini o'ziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Hisorda yangi hukumat tashkil qilib, buxorooliklarning qizil askarlarga qarshi olib borayotgan jang harakatlarini muvoffaqiyatlashtirishga intilgan. Olimxon Ko'lob, Hisor va Dushanba atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. 1920 yil noyabr oyining o'rtalarida uning qo'shinlari Boysun, Darband, Sherabodni qizil askarlardan ozod qilishdi. Olimxon ixtiyoriga Farg'onadan yordamga yuborilgan 4 ming yigit ham Sharqiy Buxoroga yetib keladi. 1921 yil 8-yanvarda

Olimxon qo'shining miqdori 25 ming kishiga yetgan. Hisordan Ko'lob viloyatiga kelgan Olimxon butun qo'shinlariga Ibrohimbekni oliy- bosh qo'mondon (O'rribosarlar: Sharqiy Buxoroda – Davlatmanbek va G'arbiy Buxoroda – mulla *Abdulqahhor*) qilib tayinlaydi. Biroq, bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragach, Olimxon Amudaryoning Chubek kechuvidan Afg'onistonga o'tib ketgan (1921 yil 4-mart). Olimxonni Kobulga Afg'oniston amiri Omonullaxon qabul qilib, doimiy yashashi uchun unga Qal'aiy Fotuda mahsus qarorgoh ajratib beradi. U Kobulda yashasa ham Buxorodagi ozodlik harakatiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, ko'rboshlar va ulamolarga turli maktublar va qimmatbaho sovg'alar jo'natib, ularni kurashga ilhomlantirgan. Olimxon Kobulda o'zining estaliklarini yozib tugallaydi. Umrining oxirida ko'zi ojizlanib qoladi, og'ir dardga chalinadi uzoq davom etgan hastaliklardan so'ng u Qal'aiy Fotuda vafot etadi. Kobul atrofidagi "**Shahidoni islam**" (islom shahidlari) qabristoniga dafn etilgan.

Olimxonning xotiralari Parijda fransuz tilida (1929), keyinchalik G'arbda fors tilida, O'zbekistonda o'zbek va rus tillarida (1991), Tojikistonda tojik tilida(1992) alohida kitob sifatida chop qilingan. Olimxon hikmronligi davrida Buxoroda "*Olimxon madrasasi*" qurilgan, "*Sitorai Mohi Hosa*" saroyini qurish yakunlangan.

2023-11-05 12:14:28